

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019. T/FM.61.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**AXMATOV AZIZBEK ABDUVAXOB O‘G‘LI**

**BOSHQARILADIGAN MEXANIK TIZIMLARNI DISKRET  
BOSHQARISH**

**01.02.01 – Nazariy mexanika**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy(PhD)**

**Оглавление**

**Ахматов Азизбек Абдувахоб о‘g‘li**  
Boshqariladigan mexanik tizimlarni diskret boshqarish..... 1

**Ахматов Азизбек Абдувахоб угли**  
Дискретное управление управляемыми механическими системами..... 21

**Akhmatov Azizbek Abduvakhob ugli**  
Discrete control of controlled mechanical systems ..... 40

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**  
**Список опубликованных работ**  
**List of published work .....53**

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019. T/FM.61.01 RAQAMLI ILMY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**AXMATOV AZIZBEK ABDUVAXOB O'G'LI**

**BOSHQARILADIGAN MEXANIK TIZIMLARNI DISKRET  
BOSHQARISH**

**01.02.01 – Nazariy mexanika**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/FM1018 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.insmech.uz](http://www.insmech.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xusanov Djumma XXX**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Teshayev Muhsin Xudoyberdiyevich**

fizika-matematika fanlari doktori (DSc),

**Xodjabekov Murodjon Usarovich**

fizika-matematika fanlari doktori (DSc),

**Yetakchi tashkilot:**

Rossiya Fanlar akademiyasining V.A.

Trapeznikov nomidagi Boshqarish muammolari

instituti

Dissertatsiya himoyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.02/30.12.2019. T/FM.61.01 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2024 yil \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40 uy, Tel.: (99871) 262-71-52; Faks: (99871) 262-71-32, e-mail: [insmech@academy.uz](mailto:insmech@academy.uz)).

Dissertatsiya bilan Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan.). Manzil: 100125, Toshkent, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40 uy, Tel: (99871) 262-71-52;

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**M.M. Mirsaidov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor, O'ZRFA akademigi.

**M.K. Usarov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, professor.

**A.A. Rizayev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda manipulyatorlar va mobil robotlardan bajaradigan operatsiyalar murakkabligining ortib borishi, aniqlik, ishonchlilik, energiya samaradorligiga bo'lgan talablarning oshishi natijasida mexanik tizimlar uchun yangi samarali boshqaruv tuzilmalarini ishlab chiqish va loyihalash bo'yicha izlanishlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda mexanik tizimlarni samarali boshqarish muammolarini hal qilish uchun tashqi ta'sirlarni boshqarish, real vaqt rejimida optimallashtirish, energiya samaradorligini oshirish, tarmoqli boshqaruvdagi kechikishlarni minimallashtirish, diskret va moslashuvchan boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda xavfsizlik va ishonchlilikni ta'minlashga qaratilgan usullarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, jumladan sun'iy intellekt va real vaqt rejimida optimallashtirish texnologiyalarini qo'llash, diskret va moslashuvchan boshqaruv tizimlarini joriy etish asosida samaradorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda mexanik tizimlarni matematik modellarini ishlab chiqish va barqarorlashtirish masalalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan mexanik tizimlarning harakat xususiyatlarini yaxshilash, tashqi ta'sirlarga chidamli qilish, ularning ishlash samaradorligini oshirish va energiya tejamkorligini yaxshilash, matematik modellar va boshqaruv usullarini ishlab chiqish hamda tebranishlar, harorat o'zgarishlari yoki ish sharoitlaridagi noaniqliklar kabi qiyin sharoitlarda ham ularning to'g'ri ishlashini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, mexanik tizimlarning barqaror ishlashini kafolatlash uchun ularning barqarorlik shartlarini aniqlash, ularni tahlil qilish va samarali boshqarish mexanizmlarini yaratish usullari dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda robototexnika, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish bo'yicha zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, murakkab mexanik tizimlarni barqarorlashtirishga innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va qo'llashga qaratilgan ko'plab ilmiy-tadqiqotlar o'tkazilmoqda hamda ularni amalda qo'llash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2020-2030 yillarga mo'ljallangan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasida, jumladan, "...Innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari,...", "ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish,.."<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, ilg'or boshqaruv texnologiyalarni joriy etish hamda ular ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshiruvchi diskret boshqaruv usullarini aniqlash muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi tasdiqlangan to'g'risidagi PF-6079-son farmoni

mo'ljallangan yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" farmonlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyuldagi PQ-3117-sonli "Qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohasida ilmiy-texnik bazani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror, shuningdek, 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4794-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududlari va aholisini seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" prezident qarori va ushbu faoliyat bilan bog'liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur ilmiy ish respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Hozirgi vaqtda xorijiy olimlar tomonidan mexanik tizimlarni barqarorlashtirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan quyidagi olimlar tomonidan: Kelly R., Santibanez V., Loria A., Alonge F., D'Ippolito F., Raimondi F. M., Alvarez J., Cervantes I., Kelly R, Campa R, Miyazaki F, Naniwa T., Suzuki H, Åström K. J., Hägglund T, Berghuis H., Nijmeijer H. A, Burkov I.V, Fischer N., Dani A., Sharma N., Dixon, W.E, Gorez R., Halanay A., Rasvan V, Meza J, Orrante J., Ortega R., Parada P. Sun D., Hu S., Shao X., Liu C, Wen J. T., Murphy S, Yarza A., Zavala-Rio A., Aguinaga-Ruiz E., Palenov M.V., Kudashova E.A., Karapetyan A.V., Lysiakov V.N., A.S. Andreev, O.A. Peregudova, S. Arimoto, R.G. Muxarlyamov va boshqa ko'plab olimlar muhim ilmiy izlanishlar olib borib, ma'lum natijalarga erishgan.

Respublikamizda ushbu yo'nalishda A.G. Azizov, D. Azimov, Q. Xusanov, N.A. Korshunova, O.M. Dusmatov, M.M. Mirsaidov, Dj.X. Xusanov, K.S. Sultanov, A.A. Rizaev, K.A. Karimov, G'.A. Baxodirov, I.I.Safarov, M.X Teshayev, M.U.Xodjabekov va boshqa bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va ijobiy natijalarga erishgan.

Shu bilan birga, boshqariladigan mexanik tizimning dasturiy harakatini barqarorlashtirish masalasini yechish uchun umumiy usullar va algoritmlar mavjud emasligi sababidan masala yechimi hali ham ochiqsigicha qolmoqda. Hozirgi kunga qadar robot-manipulyatorlarni boshqarishda diskret boshqaruvlardan foydalanish muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Navoiy davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** dinamika tenglamalarining noxiziqililigini hisobga olgan holda mexanik tizimlarning harakatlarini boshqarishning diskret modellarini hamda ko'p bo'g'inli robot manipulyatorlarning dasturlashtirilgan harakatlarini barqarorlashtirish masalalarida diskret teskari bog'lanish tuzilmasini ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

golonom mexanik tizimlarning harakatlarini boshqarish masalalarida diskret boshqaruvni ishlab chiqish;

golonom mexanik tizimlarning dasturiy harakatlarini barqarorligini ta'minlaydigan diskret teskari bog'lanishli boshqarish ishlab chiqish;

silindrik sharnirli ko'p bo'g'inli manipulyatorlar uchun uzluksiz va diskret boshqarish modellarini ishlab chiqish;

manipulyatorlarning o'rnatilgan harakatlarini barqarorlashtirishni, vertikal asosli bo'g'inga ega uch bo'g'inli manipulyatorning global trayektoriyasini kuzatishni ta'minlovchi boshqaruv usulini takomillashtirish;

burchak tezliklarini hisobga olmagan holda robot-manipulyatorning tutqichini boshqarish masalasini yechish usulini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida II tur Lagranj tenglamasi bilan ifodalanadigan boshqariladigan golonom mexanik tizimlar hamda ko'p bo'g'inli robot manipulyatorlarni boshqarish qonunlarini ishlab chiqishi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** golonom mexanik tizimlarning traektoriyalarini kuzatish va ularni pog'onali diskret boshqarish usullari orqali barqarorlashtirish, silindrik sharnirli ikki va uch bo'g'inli manipulyatorlar uchun harakat tenglamalari keltirib chiqarish hamda antropomorfik robot qo'li va robot-manipulyatorning tutqichini dasturiy harakatlarini asimptotik turg'unligini ta'minlaydigan boshqarish qonunlarini ishlab chiqish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada boshqaruv nazariyasi metodlaridan, nohiziqli tahlil, nazariy mexanika, sonli usullardan hamda funksional-differentsial tenglamalar muhim xossalari va mexanik tizimlarni boshqarishdan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

boshqariladigan golonom mexanik tizimlarning traektoriyalari kuzatish, belgilangan dasturiy harakatlarni barqarorlashtirish masalalari uchun pog'onali diskret boshqarish qonuniyatining analitik ifodasi Lyapunovning bevosita usuli asosida ishlab chiqilgan;

ko'p bo'g'inli robot manipulyatorlarning harakatlarini barqarorlashtirish nohiziqli masalasi fazoviy fazoning silindrik xususiyati hisobga olgan holda yechish usuli ishlab chiqilgan;

silindrik sharnirli ko'p bo'g'inli robot manipulyator pozitsiyasiga asoslangan teskari bog'lanishli yarim global traektoriyani kuzatishni ta'minlaydigan uzluksiz va diskret boshqaruv modellari sharnirlarda yopishqoq ishqalanish hosil qilish bilan Lyapunovning bevosita usuli asosida ishlab chiqilgan;

silindrik sharnirli ikki va uch bo'g'inli manipulyatorlar uchun Lyapunov bevosita usuli yordamida boshqaruv qonuniyatining analitik ifodasi ishlab chiqilgan;

robotning antropomorfik qo'li, robot-manipulyator tutqichi, ularning belgilangan dasturiy harakatlari barqarorligi ta'minlaydigan boshqaruv tuzilmasini qurish usullari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

belgilangan dasturiy harakatlarni barqarorlashtirish masalalari uchun yangi turdagi nohiziqli regulyatorlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular tizimning asimptotik

turg'unligini yuqori aniqlilik bilan ta'minlangan;

ko'p bo'g'inli robot-manipulyatorlarning traektoriyalarini kuzatish va boshqarish masalalarida qo'llash uchun innovatsion boshqaruv usullari ishlab chiqilgan;

ikki va uch bo'g'inli robot-manipulyatorlar uchun maxsus nohiziqli uzluksiz hamda diskret regulyatorlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular manipulyatorlarning murakkab harakatlarini barqarorlashtirish va traektoriyalarini kuzatish masalalarida qo'llash mumkinligini asoslagan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi teorema va tasdiqlar, turg'unlik nazariyasi usullar, mexanik tizimlarning turg'unligi va harakatini boshqarish, aniq matematik dalillar hamda hisobiy va Scilab 5.5.2, Maple 2016 maxsus paketlarida sonli modellashtirish natijalarining o'zaro mos kelishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati robot-manipulyatorlarning belgilangan dasturiy harakat va holat uchun yangi turdagi uzluksiz va diskret boshqaruv qonunlari ishlab chiqilgani mexanik tizimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyoti rivojiga qo'shgan hissasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ko'p bo'g'inli robot-manipulyatorlar, ikki va uch bo'g'inli robot manipulyatorlar, robotning antropomorf qo'li, robot-manipulyator tutqichlari uchun yaratilgan boshqaruv modellari bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Boshqariladigan mexanik tizimlarni diskret boshqarish qonunlarini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

silindrik sharnirli ikki va uch bo'g'inli manipulyatorlar uchun ishlab chiqilgan teskari bog'lanishli diskret boshqaruv qonunlari "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining 7-Gidrometallurgiya zavodi amaliyotiga joriy etildi ("Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 30-sentyabrdagi 23/01-01-07/580-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqarish jarayonlarida robot-manipulyatorlarning samaradorligini 1,2 baravarga oshirib hamda payvandlash, yig'ish va kesishdagi xatolar mos ravishda 16-19%, 10-15% va 12-18% ga kamaytirish imkonini bergan.

RNF № 22-71-00062 «Matematik usullar va mobil robot-manipulyatorlarni boshqarish tizimlarini yaratish bo'yicha yangi axborot texnologiyalari» loyihasini amalga oshirish davomida (rahbar E.A. Sutyorkina) mobil robot-manipulyatorlarni boshqarish modellarini yaratish uchun dissertatsiya natijalar qo'llanilgan (Ulyanovsk davlat universitetining 2024-yil 16-oktabrdagi 198/03-sonli ma'lumotnoma, Rossiya). Natijada boshqariladigan mexanik tizimlar va mobil robot-manipulyatorlar uchun yangi diskret modellar ishlab chiqilgan, hamda mos algoritmlar va mobil robot-manipulyatorlarni boshqarish dasturlari ishlab chiqish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari bo'yicha 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy konferensiyalarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Dissertatsiya ishi to'raligicha quyidagi seminarlarda muhokamadan

o'tkazilgan: Navoiy davlat pedagogika institutining "Matematika" kafedrasining ilmiy seminarida (2024-yil, 28-sentyabr, bayonnoma №2); "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot instituti "Mexanika va kompyuterli modellashtirish" kafedrasida qoshidagi "Mexanika muammolari" bo'yicha OTM Respublika ilmiy seminarida (2024-yil, 19-oktabr, bayonnoma №27); "Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti "Muhandislik mexanikasi" va "Avtomatlashtirish va Boshqarish" kafedralarining kengaytirilgan ilmiy seminarida (2024-yil, 29-oktabr, bayonnoma №71); "Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti "Qurilish mexanikasi va materiallar qarshiligi" kafedrasida (2024-yil 8-noyabr, bayonnoma №6) muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo'yicha 12 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola - ulardan 2 ta xorijiy (Scopus va Web of science ma'lumotlar bazalarida) va 2 ta mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi 1 ta EHM uchun dasturga guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 109 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Birinchi bobda dissertatsiyada ko'rib chiqilayotgan muammoni tadqiq qilish metodikasi va qo'yilgan masalalarni hal qilish yo'llari bayon etilgan. Bu masalalarni hal qilish tadqiqotning funksional-differensial tenglamalar va kechikuvchi turdagi diskret tenglamalar turg'unligini o'rganish metodlariga asoslangan. Birinchi paragrafda kechikish bilan bog'liq tenglamalar turg'unligi haqidagi asosiy qoidalar va teoremlari, shu jumladan ilmiy rahbarning natijalari bayon qilingan. Ikkinchi paragrafda Lyapunov funksiyalaridan foydalanish orqali diskret tenglamalar turg'unligi haqidagi teoremlari isbotlangan.

Uchinchi paragrafda qo'yilgan umumiy masalalarni tadqiq qilish metodikasi, avtomatik boshqaruvning navbatdagi masalasining turg'unligini hal qilish misolida ochib berilgan. Kechikishli teskari bog'lanish strukturasi bilan bog'liq avtomatik boshqaruvning noaniq tizimining barqarorligi masalasi ko'rib chiqilgan.

Raqamli modellashtirish natijasida turg'unlik jarayoni tahlil qilingan va tegishli grafiklar keltirilgan.

Ikkinchi bobda tizimning barqaror va dasturiy harakatini ta'minlovchi boshqaruvni qurish masalalari o'rganiladi. Masalalar tezliklarni o'lchash imkoniyati mavjudligi yoki mos dissipativ kuchlar mavjudligi sharti bilan uzluksiz va diskret teskari bog'lanishli qat'iy chiziqli bo'lmagan holda hal qilinadi.

Birinchi paragrafda mexanik tizimlarning dasturiy harakatlarini turg'unlashtirish masalasini hal qiluvchi uzluksiz va pog'onali impuls boshqarishlarni sintez qilish masalasi o'rganiladi.

Boshqariladigan golonom mexanik tizim ko'rib chiqiladi, uning vaziyati  $n$

$q_1, q_2, \dots, q_n$ , umumlashgan koordinatalar bilan aniqlanadi va harakati Lagranj tenglamalari bilan tavsiflanadi:

$$\frac{d}{dt} \left( \frac{\partial T}{\partial \dot{q}} \right) - \frac{\partial T}{\partial q} = Q + U \quad (1)$$

bu yerda  $q = (q_1, q_2, \dots, q_n)' \in R^n$  koordinata vektori,  $T = \frac{1}{2} \dot{q}' A(q) \dot{q}$  — tizimning kinetik energiyasi,  $A \in R^{n \times n}$  bu musbat aniqlangan va uzluksiz ravishda differensiallanadigan matritsa,  $Q = Q(t, q, \dot{q})$  — umumlashgan boshqarilmaydigan kuchlar vektori,  $U \in R^n$  — boshqarish vektori. Bu yerda va keyinchalik  $(\cdot)'$  — transponirlash operatsiyasi,  $\|q\| = \sqrt{q_1^2 + q_2^2 + \dots + q_n^2}$  —  $R^n$  da Evklid normasi

(1) tenglamalarni quyidagicha ifodalash mumkin

$$A(q)\ddot{q} + C(q, \dot{q})\dot{q} = Q + U, \quad (2)$$

bu yerda  $C(q, \dot{q})\dot{q}$  tarkibiy qismi koriolis va markazdan qochma kuchlar va momentlarning ta'sirini ifodalaydi

Bizga  $X = \{q^{(0)}(t): [t_0, +\infty) \rightarrow R^n$  dasturiy harakatlar to'plami berilgan bo'lsin va  $G_0 = \{q, \dot{q}, \ddot{q}\} \in R^{3n}: \|q\| \leq g_0 = const, \|\dot{q}\| \leq g_1 = const, \|\ddot{q}\| \leq g_2 = const$  soha bilan chegaralangan.

$q^{(0)}(t) \in X$  dasturiy boshqarish  $U = U^{(0)}(t)$ , yordamida amalga oshiriladigan harakat bo'lsin, shunda

$$U^{(0)}(t) \equiv A(q^{(0)}(t))\ddot{q}^{(0)}(t) + C(q^{(0)}(t), \dot{q}^{(0)}(t))\dot{q}^{(0)}(t) - Q(t, q^{(0)}(t), \dot{q}^{(0)}(t)) \quad (3)$$

tenglik bajariladi.

G'alayon  $x = q - q^{(0)}(t)$  boshqarish ta'siri  $U^{(1)} = U - U^{(0)}(t)$  kiritamiz. (2)-ga muvofiq, g'alayon harakat tenglamalari quyidagi shaklda yozilishi mumkin.

$$A^{(1)}(t, x)\ddot{x} + C^{(1)}(t, x, 2\dot{q}^{(0)}(t) + \dot{x})\dot{x} = Q^{(1)}(t, x) + Q^{(2)}(t, x, \dot{x}) + U^{(1)} \quad (4)$$

Agar  $U^{(1)} \equiv 0$  bo'lsa  $Q^{(1)}(t, 0) \equiv 0$ ,  $Q^{(2)}(t, x, 0) \equiv 0$  bo'lsa, unda (4) tenglama  $\dot{x} = x = 0$  nol yechimga ega bo'ladi, bu esa dasturiy harakat  $(q^{(0)}(t), \dot{q}^{(0)}(t))$  ga mos keladi: Shunga muvofiq,  $(q^{(0)}(t), \dot{q}^{(0)}(t))$  stabilizatsiya masalasi quyidagicha qo'yiladi.

Tenglamalari sistemasining (4) nol yechim  $\dot{x} = x = 0$  ni asimptotik turg'unligini ta'minlaydigan uzluksiz boshqarish ta'siri  $U^{(1)} = U^{(1)}(t, x, \dot{x})$ ,  $U^{(1)}(t, 0, 0) \equiv 0$  ko'rinishida teskari bog'lanish strukturasi aniqlash talab qilinadi.

Faraz qilaylik (4) tenglama tarkibiy qismlarining quyidagi ko'rinishlari mavjud bo'lishi faraz qilinadi:

$$Q^{(1)}(t, x) = F(t, x)x, \quad Q^{(2)}(t, x, \dot{x}) = D(t, x, \dot{x})\dot{x} \quad (5)$$

Avval (4) sistema uchun uzluksiz boshqarish ta'sir quyidagi ko'rinishda bo'lgan

$$U^{(1)}(t, x, \dot{x}) = -B\dot{x} - Px, \quad B, P - const, \quad B' = B, \quad P' = P \quad (6)$$

Avvalambor g'alayon ta'siri bo'lmaganda  $x = \dot{x} = 0$  harakatni stabilizatsiya qilish masalasi ko'rib chiqiladi:

bu yerda  $B, P \in R^{n \times n}$  — teskari bogʻlanish strukturasiidagi kuchaytirish koeffitsientlarining musbat aniqlangan matritsalar boʻlib, ular aniqlanishi kerak. Bu matritsalar stabilizatsiya shartlarini qanoatlantirish uchun tanlanadi. Quyidagi tasdiq isbotlandi.

**Tasdiq 1.** Kuchaytirish koeffitsientlari matritsalar  $P$  va  $B$  shunday tanlaylik, ular  $R^+ \times G_1$  sohada quyidagi tengsizliklarni qanoatlansin.

$$G_1 = \{(x, \dot{x}) \in R^{2n}: \|x\| \leq \Delta, \|\dot{x}\| \leq \Delta, \Delta > 0\}$$

$$\dot{x}' \left( B - \frac{1}{2} \left( C^{(11)}(t, x) + \left( C^{(11)}(t, x) \right)' \right) - \frac{1}{2} \left( D(t, x, \dot{x}) + \dot{D}'(t, x, \dot{x}) \right) - s_0 A^{(1)}(t, x) \right) \dot{x} \geq \alpha_1 \|\dot{x}\|^2 \quad (\alpha_1 > 0)$$

$$s_0 x' \left( P - \frac{1}{2} (F(t, x) + F'(t, x)) - \frac{1}{2} s_0 \left( C^{(12)}(t, x, \dot{q}^{(0)}(t)) + \left( C^{(12)}(t, x, \dot{q}^{(0)}(t)) \right)' \right) \right) x \geq \alpha_2 \|x\|^2 \quad (\alpha_2 > 0)$$

$$C^{(11)}(t, x) = C^{(1)}(t, x, s_0 x - \dot{q}^{(0)}(t)) \quad C^{(12)}(t, x) = C^{(1)}(t, x, \dot{q}^{(0)}(t))$$

$$2x' \left( \frac{1}{2} s_0 \left( C^{(11)}(t, x) + \left( C^{(11)}(t, x) \right)' \right) + C^{(12)}(t, x) + \left( C^{(12)}(t, x) \right)' + 2D(t, x, \dot{x}) + 2s_0 A^{(1)}(t, x) \right) - F'(t, x) \dot{x} \leq (\alpha_1 \|\dot{x}\|^2 + \alpha_2 \|x\|^2 - \varepsilon (\|\dot{x}\|^2 + \|x\|^2)) \quad (\varepsilon > 0) \quad (7)$$

Shunda (6)-tenglamadagi boshqarish ta'siri 1-masalani qanoatlanritardi va uni hal qiladi.

(4) Sistema  $\dot{x} = x = 0$  harakatini stabilizatsiya qilish masalasida diskret turdagi boshqarish ta'siri quyidagicha bo'ladi:

$$U^{(1)}[t, x, \dot{x}] = -B\dot{x}(t - T_n) - Px(t - T_n) \quad (8)$$

$$\dot{x}(t - T_n) = \dot{x}(T_n), \quad x(t - T_n) = x(T_n), \quad T_n \leq t < T_n + T, \quad T = \text{const} > 0, \quad n \in Z,$$

Quyidagi tasdiq isbotlanadi.

**Tasdiq 2.** (7)-shartlarga ko'ra, diskretizatsiya davri  $T = \text{const} > 0$  shunday tanlanishi mumkinki, (8)-boshqaruvchi ta'sir 1 masalani hal qiladi.

Dasturiy harakat  $(q^{(0)}(t), \dot{q}^{(0)}(t))$  ni pog'onali impuls ta'siri (1) bilan stabilizatsiya qilish jarayonini raqamli modellashtirish masalasi o'rganildi. Birinchi bobning ikkinchi paragrafidagi teorema asosida tegishli raqamli usulning yaqinlashishi isbotlandi.

Nazariy natijalarni qo'llash misoli sifatida gorizont tekislikda harakatlanadigan asosda joylashgan ikki bo'g'inli manipulyatorning diskret boshqaruvini qurish masalasi ko'rib chiqildi.

Diskret boshqarish ta'siri parametrlari va diskretizatsiya davri  $T > 0$

aniqlangan.

$$U_1^{(1)} = -e_1 \dot{y}_1(t - T_k) - p_1 y_1(t - T_k); U_2^{(1)} = -e_2 \dot{y}_2(t - T_k) - p_2 y_2(t - T_k)$$

$$y(t - T_k) = y(T_k), \dot{y}(t - T_k) = \dot{y}(T_k), T_k = kT, k \in Z^+, e_1, e_2, p_1, p_2 - const$$

$$y = q - q^{(0)}(t) \text{— g'alayon, } U_1 \text{— bu 2 tasdiqqa muvofiq } q = q^{(0)}(t)$$

Boshqarish parametrlarini hisoblash, stabilizatsiya jarayonining raqamli modellashtirilishi va unga mos grafiklar aniq bir masalada ko'rib chiqilgan.

Ikkinchi paragrafda tezliklarni o'lchamasdan, kichik dissipativ kuchlar mavjudligida o'rnatilgan harakatning stabilizatsiyasiga erishish shartlari aniqlanadi.

Boshqarish ta'siri  $U = U^{(0)}(t)$  bo'lib, bu (3)-tenglik  $U^{(0)}(t) = -Q(t, q^{(0)}, 0)$  ga muvofiq tanlangan deb faraz qilinib, (1)-tenglamalar bilan ifodalanadigan boshqariladigan mexanik tizim ko'rib chiqilgan.

Bu holda (2) sistema berilgan  $q(t) \equiv q^{(0)}$  holatga ega bo'ladi va bunda nol holatni qabul qilish mumkin  $\dot{q} = 0, q = 0$ .

Tezliklarni o'lchamasdan  $\dot{q}, \ddot{q} = 0, q = 0$  holatni stabilizatsiya qiladigan  $U^{(1)} = U - U^{(0)}(t)$  boshqarish ta'siri qurish masalasi o'rganiladi, ya'ni boshqarish  $U^{(1)} = U^{(1)}(t, q)$  ko'rinishida bo'ladi.

Shuningdek,  $Q(t, q, \dot{q}) - Q(t, 0, 0)$  barcha yoki ayrim tezliklar bo'yicha to'liq dissipasiyaga ega bo'lgan dissipativ kuchlar, giroskopik kuchlar, potensial va nokonservativ kuchlarga ajratilishi mumkin deb faraz qilamiz.

$$Q(t, q, \dot{q}) - Q(t, 0, 0) = Q_{(1)}(t, q, \dot{q}) + Q_{(2)}(t, q), Q_{(1)}(t, q, 0) \equiv 0, Q_{(2)}(t, 0) \equiv 0$$

Nokonservativ kuchlar boshqarish ta'siri yordamida potensial kuchlarga qadar kompensatsiyalanishi mumkin. Umumlashgan koordinatalar  $q$  quyidagi shaklda ajratilishi mumkin,

$$q' = (q^{(1)'}, q^{(2)'})', q^{(1)} = (q_1, q_2, \dots, q_k)', q^{(2)} = (q_{k+1}, q_{k+2}, \dots, q_n)'$$

( $1 \leq k \leq n$ ) bunda umumlashgan kuchlar va boshqarish ta'sirilar mos ravishda ifodalanadi. Bunda  $Q_{(1)}$  kuch giroskopik kuchlar va barcha yoki ayrim tezliklar  $\dot{q}^{(1)}, Q_{(1)}'(q \leq -\gamma \|\dot{q}^{(1)}(t)\|^2, \gamma = const > 0$  bo'yicha to'liq dissipasiyaga ega bo'lgan dissipativ kuchlar ta'sirini ifodalaydi.

Shuningdek, barcha yoki ayrim koordinatalarni o'lchash mumkin deb faraz qilib  $U$  boshqarishni  $U' = (U'_{(1)}, U'_{(2)})'$  ko'rinishida tuzamiz:

$$U_{(1)}^{(1)}(t, q) + Q_{(2)}(t, q) = -\Pi_q^{(1)}(t, q); (U_{(2)}^{(1)})' = ((U_{(2)}^{(11)})', (U_{(2)}^{(12)})')$$

$$U_{(2)}^{(11)} \in R^k, U_{(2)}^{(12)} \in R^{n-k}, U_{(2)}^{(11)}(q^{(1)}(t - T_j)) = \Pi_{q^{(0)}}^{(2)}(q^{(1)}(T_j)),$$

$$T_j \leq t < T_j + T, T_j = jT, T = const > 0$$

$$U_{(2)}^{(12)}(t, q_{\tau}^{(2)}) = f_{q^{(2)}}(q^{(2)}(t)) \int_{t-h}^t P(t, v) (f(q^{(2)}(t)) - f(q^{(2)}(v))) dv, h = const > 0. \quad (9)$$

bu yerda potensial funksiya  $\Pi^{(1)} = \Pi^{(1)}(t, q)$ ,  $\Pi^{(1)}(t, 0) \equiv 0$ ,  $\Pi_q^{(1)}(t, 0) \equiv 0$ , vaqt bo'yicha o'smaydigan funksiya,  $\Pi_q^{(1)}(t, q) < 0$ ,  $\Pi^{(2)}(0) = 0$ ,  $\Pi_{q^{(1)}}^{(2)}(0) = 0$ ,  $\|\Pi_{q^{(1)}q^{(1)}}\| \leq p_0 = const$ ,  $2p_0h < \gamma$ ; funksiya  $f = f(q^{(2)})$ da cheklangan  $\{q^{(2)} \in R^{n-k}: \|q^{(2)}\| \leq H_2 < +\infty\}$  sohada chekli sonli proobrazlarga ega yoki tenglama  $f(q^{(2)}) = c = const$  ushbu sohada chekli sondagi yechimlarga ega:  $-h \leq s \leq 0$ ;  $P = P(t, v)$  ( $P \in C^1(S \rightarrow R^{(n-k) \times (n-k)})$ ) simmetrik matritsa va uning  $\frac{\partial P(t, v)}{\partial t}$  hosilasi quyidagi tengsizliklarni qanoatlantiradi.

$$\alpha_1(v - t)\|x\|^2 \leq x'P(t, v)x \leq \alpha_2(v - t)\|x\|^2$$

$$x' \frac{\partial P(t, v)}{\partial t} x \leq -\alpha_3(v - t)\|x\|^2 \quad \forall x \in R^{n-k}$$

bu yerda  $\alpha_1 = \alpha_1(s)$ ,  $\alpha_2 = \alpha_2(s)$ , va  $\alpha_3 = \alpha_3(s)$  skalyar uzluksiz musbat funksiyalar  $-h \leq s \leq 0$  oralig'ida aniqlangan.

$$\Pi_q(t, q) = \frac{\partial \Pi(t, q)}{\partial q}, \Pi_t(t, q) = \frac{\partial \Pi(t, q)}{\partial t}, f_q(t, q) = \frac{\partial f(t, q)}{\partial q}, P_t(t, q) = \frac{\partial P(t, q)}{\partial t}..$$


$\Pi(t, q) = \Pi^{(1)}(t, q) + \Pi^{(2)}(q^{(1)})$  funksiya kiritiladi.

Shunga muvofiq quyidagi natijalar olingan.

**Tasdiq 3.** Faraz qilaylik, har qanday  $\|\Pi(t, q)\| \geq \Pi_0(q) \geq 0$ , uchun bunda ushbu  $\{\Pi_0(q) = 0\} \cap \{\|q\| \leq H_1 < H$  to'plam cheklangan sondagi nuqtalardan iborat bo'lsin. Shunda (9) boshqarish ta'siri ostida har qanday (1) cheklangan harakat tizimni cheksiz ravishda barqarorlik holatlaridan biriga, ya'ni  $\dot{q} = 0$ ,  $q = q_0 = const$  ning muvozanat holatlaridan biriga olib keladi, bu esa  $\Pi_0(q_0) = 0$  tenglikni qanoatlantiradi.

**Tasdiq 4.** Agar (9) boshqarish ta'siri quyidagi tengliklarni qanoatlantirsa:

- 1)  $a_1(\|q\|) \leq \Pi(t, q) \leq a_2(\|q\|)$ ;
- 2)  $\left\| \frac{\partial \Pi(t, q)}{\partial q} \right\| \geq \Pi_0(q) \geq 0$ ,  $\Pi_0(q) = 0 \Leftrightarrow q = 0$ ..



1-rasm. Robot-manipulyatorning antropomorf qo'lini

U holda (9) tenglama harakatning  $\dot{q} = 0$ ,  $q = 0$  holatini tekis asimptotik turg'unlikka keltiradigan stabilizatsiya masalasini hal qiladi.

Uchinchi paragrafda robot-manipulyatorning antropomorf qo'lini belgilangan holatga keltirish masalasi ko'rib chiqilgan. Ushbu holatni stabilizatsiya qilishni ta'minlaydigan boshqarish qonuni taqdim etilgan. Robotning antropomorf qo'lining matematik modeli, 1-rasmda ko'rsatilganidek, ko'rib chiqilgan.

Antropomorf qo'lining harakati matritsali Lagranj tenglamalari ko'rinishda tuzilgan.

$$A(\theta)\ddot{\theta} + C(\theta, \dot{\theta})\dot{\theta} = M - D(\theta, \dot{\theta})\dot{\theta} + U$$

bu yerda  $C(\theta, \dot{\theta})\dot{\theta}$  — Koriolis va markazdan qochish momentlarining ta'sirini ifodalaydi,  $M$  — gravitatsion kuch momentlari,  $D(\theta, \dot{\theta})\dot{\theta}$  — dissipativ momentlarni, ya'ni energiya yo'qolishi bilan bog'liq kuchlarni ifodalaydi, va  $U$  — boshqarish ta'siri

$$M_1 = -g(m_1lc_1 + m_2l_1 + m_3l_1)\cos\theta_1 - g(m_2lc_2 + m_3l_2)\cos(\theta_1 + \theta_2) - m_3glc_3\cos(\theta_1 + \theta_2 + \theta_3)$$

$$M_2 = -g(m_2lc_2 + m_3l_2)\cos(\theta_1 + \theta_2) - m_3glc_3\cos(\theta_1 + \theta_2 + \theta_3)$$

$$M_3 = -m_3glc_3\cos(\theta_1 + \theta_2 + \theta_3)$$

$D = (d_1, d_2, d_3)'$ ,  $d_1, d_2, d_3$  —  $O_1, O_2, O_3$  sharnirlardagi dissipativ momentlarning koeffitsiyentlari

Faraz qilaylik,  $\dot{\theta}=0$ ,  $\theta_1=\theta_1^0$ ,  $\theta_2=\theta_2^0$ ,  $\theta_3=\theta_3^0$  — bu robot qo'lining har qanday berilgan holati bo'lsin. Harakatni stabilizatsiya qilishning uzluksiz va diskret boshqarish momentlar orqali ikkita holati ko'rib chiqiladi:

Birinchi holatda uzluksiz boshqarishni ko'rib chiqamiz va quyidagicha faraz qilamiz:

$$U_i = M_i^0 - k_i \sin \frac{x_i(t)}{2} - p_i \cos \frac{x_i(t)}{2} \int_{t-h_0}^t e^{s_i(\tau-t)} \left( \sin \frac{x_i(\tau)}{2} - \sin \frac{x_i(t)}{2} \right) d\tau, \\ i = 1, 2, 3$$

$x_i = \theta_i - \theta_i^0$  ( $i = 1, 2, 3$ ),  $M_i^0$  ( $i = 1, 2, 3$ ) — gravitatsion momentlarning ( $\theta_1^0, \theta_2^0, \theta_3^0$ ) holatdagi qiymatlari,  $k_1, k_2, k_3$  doimiy turg'unlik holatidan tanlanadi.

$$k_1 \geq g(m_1lc_1 + m_2(l_2 + lc_2) + m_3(l_1 + l_2 + lc_3)) + \varepsilon_1,$$

$$k_2 \geq g(m_2lc_2 + m_2(l_2 + lc_3)) + \varepsilon_2, k_3 \geq gm_3lc_3 + \varepsilon_3 \quad (\varepsilon_1, \varepsilon_2, \varepsilon_3 > 0),$$

$h, p_i, s_i$  ( $i = 1, 2, 3$ ) — ixtiyoriy musbat o'zgarmaslar bo'lishi mumkin 4-tasdiqqa muvofiq boshqarish momenti robotning antropomorf qo'li holatining lokal bo'lmagan masalasini hal qiladi.

Ikkinchi holda,

$$U_i = M_i^0 - p_i \sin \frac{x_i(T_j)}{2}, T_j = jT, j \in Z^+, T > 0$$

deb faraz qilaylik bu yerda  $p_i$  ( $i = 1, 2, 3$ ) musbat doimiyliklar va diskretizatsiya davri  $T > 0$  dissipativ momentlarining samarali ta'sir qilish shartlariga muvofiq tanlanadi.

$$\sum_{j=1}^3 d_j(\theta, \dot{\theta})\dot{\theta}_j^2 \leq -\gamma(\dot{\theta}_1^2 + \dot{\theta}_2^2 + \dot{\theta}_3^2) \quad (\gamma > 0)$$

Shunga o'xshash tarzda, 4-tasdiq bo'yicha, bunday holatda ham boshqarish momentlari antropomorf robot qo'lining holatini nolokal barqarorlashtirish masalasini hal qilishini aniqladik.

Quyidagi parametrlar bilan ko'rsatilgan boshqarish ta'sirida robotlashtirilgan antropomorf qo'lining harakatini raqamli modellashtirish amalga oshirildi:

$$I_1 = 0.12 \text{ кг} \cdot \text{м}^2, I_2 = 0.12 \text{ кг} \cdot \text{м}^2, I_3 = 0.12 \text{ кг} \cdot \text{м}^2, m_1 = 2.5 \text{ кг}, m_2 = 15 \text{ кг}, m_3 = 2 \text{ кг}, l_1 = 0.5 \text{ м}, l_2 = 0.1 \text{ м}, l_3 = 0.5 \text{ м}, lc_1 = 0.2 \text{ м}, lc_2 = 0.05 \text{ м}, lc_3 = 0.5 \text{ м}$$

Grafiklar antropomorf robot qo'lini  $(0, 0, -\pi/2)$  holatiga keltirish uchun shu

boshqaruvlar yordamida qanday oʻrnatilganligini koʻrsatadi

Uchinchi bobda silindrik sharnirli robot-manipulyatorning dasturiy harakatini burchak tezliklari oʻlchanmasdan teskari bogʻlanish orqali uzatiladigan boshqarish taʼsirlari yordamida stabilizatsiyalash vazifasi oʻrganilgan. Shuningdek, boʻgʻinlardagi yopishqoq ishqalanish mavjudligi hisobga olinib, uzluksiz va diskret boshqaruv taʼsirlari tahlil qilinadi.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida mutlaqo qattiq aylanuvchi boʻgʻinlarga ega koʻp boʻgʻinli robot-manipulyatorlarning nostatsionar traektoriya boʻyicha robust kuzatuv masalasi hal etiladi. Tuzilgan boshqaruv qonunining amaliy qoʻllanilishi uch boʻgʻinli fazoviy manipulyatorning dasturiy harakatini stabilizatsiya qilish vazifasini hal qilishda koʻrsatilgan, shuningdek, mos raqamli modellashtirish dasturi ishlab chiqilgan va grafigi keltirilgan.

Silindrik sharnirlarga ega koʻp boʻgʻinli robot-manipulyatorning harakati quyidagi tenglamalar yordamida tavsiflanishi mumkin.

$$D(q)\ddot{q} + C(q, \dot{q})\dot{q} + g(q) = u + M_F \quad (10)$$

bu yerda  $q \in R^n$ ,  $\dot{q} \in R^n$  va  $\ddot{q} \in R^n$  mos ravishda boʻgʻinlarning burilish burchaklari, burchak tezliklari va burchak tezlanishlarini ifodalaydi.  $D(q) \in R^{n \times n}$  — inersiya matritsasi,  $C(q, \dot{q}) \in R^{n \times n}$  — Koriolis va markazdan qochma kuch aʼzolarining matritsasi,  $g(q) \in R^n$  — gravitatsion momentlari.

$$M_F = -\dot{F}q, F \in R^{n \times n}, F - \text{const}, y'Fy \leq 0 \quad \forall y \in R^n$$

$M_F$  — boʻgʻinlardagi ishqalanish momentlari,  $u \in R^n$  esa boshqarish momentlari vektoridir.

(10) tenglamasidagi  $D(q)$ ,  $C(q, \dot{q})$  matritsalar va  $g(q)$  vektori  $q_1, q_2, \dots, q_n$  oʻzgaruvchilarning ayrim davrlarida  $h_i > 0$  ( $i = 1, 2, \dots, n$ ) bilan davriy funksiyalar boʻladi. Shunday qilib, agar  $u = 0$  boʻlsa, (10) tenglama nafaqat muvozanat holatiga ega boʻladi, yaʼni  $(q, \dot{q}) = (0, 0)$ , balki quyidagi  $(q, \dot{q})$  koʻrinishda boʻlgan butun bir muvozanat holatlar toʻplamiga ega boʻladi:  $q = (h_1 k_1, h_2 k_2, \dots, h_n k_n)'$ ,  $\dot{q} = 0$ , bu yerda  $k_j \in Z$ ,  $j = 1, 2, \dots, n$ .

Ushbu paragraf va butun boʻlimning asosiy gʻoyasi —  $q_1, q_2, \dots, q_n$  oʻzgaruvchilarning davriy funksiyasi boʻlgan regulyatorni qurishdir. Bu (10) tenglamasidagi nafaqat nol, barcha muvozanat holatlarining turgʻunlik xususiyatlarini oʻrganishga imkon beradi. Bunday yondashuv manipulyator boʻgʻinlari katta tezliklarda harakat qilganda va boshlangʻich xatoliklar katta boʻlganda qulaydir. Yopiq tizimning gʻalayonlar dinamikasini nol muvozanat holatiga olib kelish, uni eng yaqin muvozanat holatiga olib kelishdan koʻra koʻproq sarf talab qilishi koʻrsatilgan.

Endi, bu manipulyatorga (10) tenglama boʻyicha dastlabki har qanday holatdan faqat boʻgʻinlarning burchak oʻlchovlarini ishlatib, kerakli traektoriyani kuzatishga imkon beradigan boshqarish qonunini  $u$  shaklida izlaymiz. Masalani aniqroq shakllantiramiz.

(1) Sistemadagi barcha kerakli traektoriyalar toʻplamini  $Q$  quyidagicha aniqlaymiz:  $Q = \{q_r(t): [t_0, +\infty) \rightarrow R^n: \|\dot{q}_r(t)\| \leq q_{m1}, \|\ddot{q}_r(t)\| \leq q_{m2}\}$ , bu yerda  $q_r(t)$  — ikki marta differensiallanuvchi funksiya,  $q_{mi} = \text{constant} > 0$  ( $i =$

1,2),  $t_0 = \text{constant} \geq 0$ . Masalaning mohiyati shundaki,  $u = u(t, q(t), q(t + s))$  orqali boshqaruv qonuni ( $s \in [-t, 0]$ ) quriladi va qidirilayotgan traektoriya  $q_r(t) \in Q$  manipulyatorning (10) tenglamasi uchun tekis asimptotik turg'un bo'ladi.

Keling,  $q_r(t) \in Q$  bo'lgan biror kerakli traektoriyani tanlaymiz va kuzatish paytidagi siljilishlarni quyidagicha belgilaymiz:

$$e_q = q - q_r(t), \quad \dot{e}_q = \dot{q} - \dot{q}_r(t).$$

(10) tenglamasidan kuzatish dinamikasi tenglamalarini hosil qilishimiz mumkin.

$$D_{st}(t, e_q)\ddot{e}_q + C_{st}(t, e_q, 2\dot{q}_r(t) + \dot{e}_q)\dot{e}_q = u - u_r(t, e_q), \quad (11)$$

(11) uchun silindrik fazaviy fazoni  $\{(e_q, \dot{e}_q) \in K^n \times R^n\}$ , ko'rinishda kiritamiz. Bu yerda  $K^n$  quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$K^n = \{x \in R^n: x_1(\text{mod}h_1), x_2(\text{mod}h_2), \dots, x_n(\text{mod}h_n)\}.$$

